XIVA XONLIGINING ADABIY-MADANIY MUHITI TARIXSHUNOSLIGI

Alimova G‘unchaxon Baxadirovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti Tarix kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: alimovag’uncha@gmail.com
Tel: +998990185433

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xiva xonligining adabiy-madaniy muhiti tarixshunosligi, Xiva xonligida adabiyot, san’at, madaniyat rivoj topganligi, O‘rta Osiyoga, jumladan Xiva xonligiga turli yillarda kelgan sayyohlar, olimlar, harbiylar va boshqa davlat vakillarining yozgan asarlari, mamlakatning o‘sha davr tarixi, xo‘jaligi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qilishi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Xiva, xonlik, Feruz, manba, madaniy hayot, O‘rta Osiyo, adabiyot, san’at, madaniyat.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, o‘zbek xalqining o‘z tarixi, madaniyati va qadimiy qadriyatlariga, ularni qayta tiklashga e’tibor oshdi. O‘zbekiston tarixining turli davr muammolari bo‘yicha ilmiy asosli tadqiqotlar olib borishga kirishildi. Ular jumlasiga tadqiq etish ancha qiyinchilik tug’diradigan O‘zbekiston tarixining murakkab va qarama qarshiliklarga to‘la xonliklar tarixini, Xiva xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin olib borilgan mustamlakachilik siyosati va uning madaniy hayotga ta’siri, Xiva xonligi saroy adabiy muhitini o‘rganish masalasini ham kiritish lozim. Xiva xonligi saroy adabiy muhiti va madaniy hayoti tarixi chuqur ilmiy ahamiyatli muammolardan hisoblanadi.

O‘rta Osiyo xonliklaridan biri bo‘lgan Xiva xonligi to‘rt yuz yillik tarixga ega. Ma’lumki Xiva xonligida dastlab rasman 1511-1804 yillar davomida Shayboniylar sulolasi, 1804-1920 yillarda esa Qo‘ng’irotlar sulolasi hukmronlik qilgan. Sulolalar hukmronligi davrida Xiva xonligida adabiyot, san’at, madaniyat rivoj topganligini ko‘rish mumkin. Xususan Qo‘ng’irotlar sulolasi vakili, Xiva xoni o‘z davrining yyetuk shoiri, mohir bastakori va ma’rifatparvar hukmdori Sayid Muhammad Rahimxon Soniy (1864-1910)ning qariyb yarim asrlik hukmronlik davrida Xivada barcha adabiy hayot rivoji yuqori cho‘qqiga chiqdi. Buni avvalo Feruzning boshqalarga ibrat bo‘lib, atoqli shoirlar, olimlar va sozandayu, xonandalarni o‘z atrofiga to‘plab, ular bilan ilmiy – adabiy faoliyatni davom qildirganligi va rivojlantirganligida ko‘rish mumkin. Xon rahnamoligida saroy ayonlari, mudarris va ulamolar, kasbdorlar orasidan o‘z davrining mashhur ma’rifatchilari, shoiru adiblari, tarixnavis olimlari, tarjimon, xattot va

musiqashunoslari yyetishib chiqdi. Muhammad Rahimxon II Feruzxonning rahnamoligi va tashabbuskorligi sababli xonlikda adabiyot va madaniyat rivoj topdi.

Xonlik to’rt yuzlik tarixga ega bo’lib, bu davr adabiy va madaniy hayot o‘z rivojlanishida davom etdi. Xiva saroy adabiy muhiti va uning namoyondalarining asarlari o‘rganilayotgan adabiy hayotini o’rganishda asosiy tarixiy manba sanaladi.

Adabiyotlar tahlili. Xiva xonligining adabiy-madaniy muhiti tarixshunosligi nuqtai nazaridan O‘rta Osiyoga, jumladan Xiva xonligiga turli yillarda kelgan sayyohlar, olimlar, harbiylar va boshqa davlat vakillarining yozgan asarlari, mamlakatning o‘sha davr tarixi, xo‘jaligi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Bular qatorida N.Muravyov, M.Ivanin, L.Sobolev, L.Kostenko, A.Kun, N.Veselovskiy, G.Danilevskiy, D.Gladeshev, X.Vamberi, V.Velyaminov-Zernov, A.Kaulbars, A.Shile, E.Jelyabujskiy, A.Samoylovich, Grishfeld kabi olim va sayyohlarning esdalik va asarlarini tilga olish mumkin.

Shu bilan bir qatorda Xiva xonligi adabiy-madaniy muhiti tarixiga oid ayrim ma’lumotlarni Xorazm tarixchilarining asarlaridan ham olish mumkin. Jumladan, A. Abdurasulov, K.Nurjonov, K.Xudoyberganov, D.Rahim va Sh. Matrasul, N.Qobulov, N.Polvonov, P.Yusupovlar bilan birga kutubxona tarixi to‘g’risida, A.Kormilitsin, O.Qosimova Xiva adabiy muhiti borasida, B.Mannonov, S.Hasaniy kabi olimlar kitoblarini, «Xiva ming gumbaz shahri», «Xivaning 2500 yillik yubileyiga bag‘ishlangan «Xiva jahon madaniyati durdonasi», «Xorazm navozandalari», «Xorazmda bitilgan qo‘lyozmalar» kabi risolalarni ham aytib o‘tish lozim.

Mustaqillik yillarida Xiva xonligi tarixi bo’yicha bir qator nomzodlik dissertatsiyalari ham yoqlandi. Ular jumlasiga O. Masaliyeva, S. Saburova, O. Mutalov, K. Xudayberganov, M. Madaminov, F. Ernazarov, N. Polvonov, M. Qayumov, N. Allayeva, U. Abdurasulov, Yu.Raxmanova, S. Turayeva, U.Sharipovlarning tadqiqotlarini kiritish mumkin.

XULOSA

Xorazmdagi tarixnavislik maktabi O‘rta Osiyo tarixnavisligi va manbashunosligida alohida o’rin egallaydi. Shoh va muarrix Abulg’oziy Bahodirxon asos solgan Xiva tarixnavislik maktabini Shermuhammad Munis, Ogahiy, Bayoniy va boshqa tarixchilar davom ettirdilar. Ularning asarlari Xiva tarixi va madaniyatini har tomonlama o‘rganish uchun imkon beradi. Xorazmlik muarrixlarning asarlarida Xiva davlatining iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayoti, xalqaro aloqalari keng yoritilgan.

Shu bilan birga Xiva xonligida adabiyot, san’at, madaniyat rivoj topgan sanaladi. Xususan Qo‘ng’irotlar sulolasi vakili, Xiva xoni o‘z davrining yetuk shoiri, mohir bastakori va ma’rifatparvar hukmdori Sayid Muhammad Rahimxon Soniy (1864-1910)ning qariyb yarim asrlik hukmronlik davrida Xivada barcha adabiy hayot rivoji yuqori cho‘qqiga chiqdi. Buning samarasi sifatida Bobojon Tarrox asarida 31 nafar, Laffasiy asarida esa 50 dan ortiq ana shunday mo‘tabar ijodkorlarning nomlari tilga olinishida, shuningdek, Feruz xonadonidan 20 dan ziyod shaxzodalar yetuk shoir, tarjimon, xattot va musiqa san’atining mohir navozandalari bo‘lib yetishib chiqqanligida ko‘rish mumkin.

Umuman olganda, o‘rganilayotgan davrda Xiva xonligida shajaraviy tarixnavislik va tarjima maktabi yanada o‘zining yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Xonlik tarixi bo‘yicha bir qancha tarixiy asarlar yaratildi. Shuningdek, rus sharqshunoslari va xorijliklar tomonidan xonlik hududini o‘rganish kuchaydi. Ular tomonidan yozib qoldirilgan ma’lumotlar bugungi kunda shu davr tarixini o‘rganishda muhim manbalar hisoblanadi.

Xonlik ma’naviy va ma’rifiy taraqqiyoti bevosita Muhammad Rahimxon soniy Feruzning olib borgan odilona siyosati bilan bog’liq. Bu avvalo Feruzning boshqalarga ibrat bo‘lib, atoqli shoirlar, olimlar va sozandayu, xonandalarni o‘z atrofiga to‘plab, ular bilan ilmiy – adabiy faoliyatni davom qildirganligi va rivojlantirganligidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurasulov A. Xiva (tarixiy-etnografik ocherklar). T.: O‘zbekiston. 1997.
2. Bobojon Tarroh. Xorazm navozandalari. – T.: Adabiyot va san’at, 1994.
3. Matyakubova M.M. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Xiva xonligida kitobat va kutubxona tarixi.. – Toshkent: 2008. 38-b.
4. Xiva ming gumbaz shahri. – T.: Sharq, 1997.
5. Qobulov N. Xorazm adabiy muhiti. – Urganch, 1992.
6. Qosimova O. O‘zbekistonda kutubxonachilik tarixi. – T.:O‘qituvchi, 1989.
7. M. Matniyozov, A. Sotliqov. Jahon tarixi va madaniyatida Xorazm. Urganch, 1999 y.